

OTANING BEBAHO MEROSI

Abduraxmonov Abdulkodiy Abdulatif o‘g‘li

Osiyo Xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasи o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10694394>

Annotatsiya. Bu maqolada tarbiya haqida gap yuritilgan. Xozirgi kunda farzandlarni tarbiyasи bilan shug‘ullanishlik juda ham muhimdir. Aynan ota-onalar bunga jiddiy ahamiyat berishliklari kerak bo‘ladi. Toki farzandlarini kelajakda jamiyatda yaxshi iz qoldirishlari uchun.

Kalit so‘zlar: Ota-on, farzand, tarbiya, ahloq, ta‘lim, telefon.

FATHER'S INVALUABLE LEGACY

Abstract. This article is about education. Nowadays, it is very important to deal with the education of children. It is the parents who should pay serious attention to this. So that their children leave a good mark in society in the future.

Key words: Parents, children, education, morals, education, phone.

БЕСЦЕННОЕ НАСЛЕДИЕ ОТЦА

Аннотация. Эта статья об образовании. В наше время очень важно заниматься образованием детей. Именно родителям следует обратить на это серьезное внимание. Чтобы их дети в будущем оставили хороший след в обществе.

Ключевые слова: Родители, дети, образование, нравственность, воспитание, телефон.

Bugungi kunda ota onadan farzandlar tarbiyasiga yanada e’tiborliroq bo‘lishga zamonning o‘zi undamoqda. Chunki bugun kechadan shiddatliroq odimlamoqda.

Hazrati Ali roziyallohu anhu: “Farzandlaringizga o‘zingiz yashagan oldingi zamonga moslab emas, o‘z zamonlariga mos ilm beringlar. Chunki ular sizlarning zamonlaringizda yashamaydilar, balki o‘z zamonlarida yashaydilar”, deganlar.

Shu bois tarbiya masalasiga o‘ta jiddiy yondoshish kerak. Hazrat Navoiy bobomiz:

“Balog‘at ostonasida turgan avlodiningizga siz kabi ishonchli bir do‘st topilmas. Ularga eng yaqin do‘st siz bo‘ling”, deb maslahat bergenlar. Ayrim ota-onalarning hayot hikmatlarini unutib, farzandlarining oz holiga tashlab qo‘yishlari oqibatida esa necha-necha adashgan yoshlarnoto‘g‘ri yo‘llarga kirib, yosh umrlari hazon bo‘lmoqda. Shuning uchun ham Abdulla Avloniy:

“Bugungi o‘g‘ri, firibgar va xulqi yomon kimsalar kecha tarbiyasiga e’tibor berilmagan bolalardir”, degan edilar. Tarbiya faqat uyni ichidagina emas jamoat joylarida ham davomiy bo‘sagina foydalidir.

Yoshlarning ichkilikbozlik, giyohvandlik dardlariga mubtalo bo‘lishi, qimmatli vaqtlarini behuda sovurib, ahloqsiz, ko‘ngilochar maskanlarda tentirab yurishlari milliy va diniy qadiryatlarimizga ziddir. Aslida farzandlar ota-on, ustoz-murabbiylar g‘amho‘rligida va ko‘magida ilm olib, hunar o‘rganishlari, Vatanimizga foyda keltiradigan inson bo‘lib yetishishlari shartdir.

Bu vazifalarni ajdodlarimiz juda yaxshi his etganlar va farzand tabiyasiga mas’uliyat bilan qaraganlar. Zahriddin Muhammad Bobur bobomiz farzandlarining ta‘lim tarbiyasи haqida har doim o‘ylab, mulohaza bilan ish yuritganlar, ularni o‘qish va o‘rganishga da’vat qilganlar.

U hatto farzandlariga qaysi kitob zarurligini bilib, o‘zi tallab olib berar, ularning imlosi, inshodagi xatolarini tekshirar, bexato, sodda ravon va yozishni o‘rgatganliklari taxsinga sazovordir.

Darhaqiqat, biron ota-onasi yo‘q-ki, bolasini kelajagini, kamolini baxtu-kamolini o‘ylamaydigan. Ammo bugungi kunda vaziyat juda nozik, birgina bola qo‘lidagi telfonga beparvolik, bola ongini juda tez zaharovchi, bemehr bo‘lib ulg‘ayishiga sabab bo‘ladi.

Farzandingizni telfondan internetdan oqilona, yaxshilik yo‘llarida foydalanishiga yo‘naltirmog‘ingiz, joiz bo‘lsa, o‘zingiz ham bu ishda namuna bo‘lmog‘ingiz lozimdir.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Kishining farzandiga chiroyli odob berishi har kuni miskinlarga yarimta non sadaqa qilganidan afzaldir”, deganlar (Imom Termiziyy rivoyati).

Baxtli farzandlar ota-onasidan chiroyli tarbiya ko‘rganlardir, chunki farzandlarga otadan qoladigan eng bebaxo meros bu go‘zal tarbiyadir hamda uning hayoti davomida asqotadigan ma’naviy tirgagidir.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Ota o‘z farzandiga chiroyli tarbiyadan yaxshiroq meros qoldirolmaydi”, degan da‘vatlarini yodimizdan chiqarmaylik.

REFERENCES

1. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. “Sahihi Buxoriy”. Karachi: “Maktabatul bushro” nashriyoti 2017 y.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Oltin silsila”. Toshkent: “Hilol nashriyoti” 2013 y.
3. Abu Iso at-Termiziyy. “Sunani Termiziyy”. Baytur: “Muassasatur risalatun nashirun” 2019 y.
4. Abdulla Avloniy. “Turkiy gulston yohud axloq”. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti 2004 y.